



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA NASRIY MATNLARNING AHAMIYATI

Abdullayeva Zarnigor

O'zbekiston –Finlandiya Pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) fakulteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu ishda o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar va metodlar ko'rsatib berilgan. Maqolada nasriy matnlarning o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va dunyoqarashini rivojlantirishda tutgan o'rni ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar. *Nutqiy savodxonlik, ijodiy fikrlash, to'g'ri talaffuz me'yorlari*

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, she'r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o'rganiladi. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop maqolalar ham o'qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, stilistik priyomlari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchi unga mos metodlar tanlashi talab etiladi. Eng avvalo, hikoya janriga oid bo'lgan asarlarning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalmoqchimiz.

Hikoya:1) biror narsaning og'zaki bayoni, tafsiloti; 2) nasriy yo'l bilan yozilgan kichikroq badiiy asar. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Jahon adabiyotida hikoya qadim an'analarga ega. O'tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri bo'lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Hikoya janri ham hayotiyli bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf «Ona tili va o'qish savodxonligi»dagi «Mehribon aka-ukalar» (Xudoyberdi To'xtaboyev), «Chiroqning moyi kimniki» (Ziyovuddin Rahim), «O'g'ri topildi» (Ziyovuddin Rahim), va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Birinchi hikoyamiz "Mehribon aka-ukalar" bo'lib Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub.

Mehribon aka-ukalar

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, jannatmonand Farg'ona vodiysida bir mehnatkash dehqon yashab o'tgan ekan. U Alloh bergan umrini mazmunli yashab, vaqti-soati yetgach, omonatini topshirgan otalariga o'xshab mehnatkash, serg'ayrat, halol kishilar ekan. Ular otalaridan meros qolgan yerga bug'doy, sholi, makkajo'xori



kabi serhosil don-dunlardan ekishar ekan. Hosillari yildan yilga omborlarini to'ldirib boraverarkan. Nihoyat, bug'doy yig'imi mavsumi yetib kelibdi. Aka-ukalar bug'doyni o'rib, xirmonga bosishibdi. O'sha zamonlarda o'rilgan bug'doyni ho'kizlar tuyoqlari bilan yanchib, donga aylantirarekan. Ho'kizning ustiga og'ir narsalarni bostirib ishlatishar ekan. Bir kuni kechasi, yarim tunda ukasi uyg'onib ketibdi. – Men so'qqaboshman, yolg'iz o'zim yashayman. Akam bechoraning besh bolasi bor, ulushimning yarmini unga beray, akam sotib, qishda qiynalmasligi uchun ro'zg'orini butlab olsin, – deya xirmonga borib, ulushining yarmini akasinikiga qo'shib qo'yibdi. Buni qarangki, o'sha tun akasi ham uyg'onib, behalovat bo'lib, uxlamay chiqibdi. – Men-ku, Xudoga shukur, uyli-joyliman, yaxshigina hovlim ham bor. Ukam bechora yakka o'zi, axir u ham uylanishi, uy-joy qurib olishi kerak. Donimning yarmini o'shanga beray, sotsin, uylanib olsin, – deya xayolidan o'tkazibdi. So'ng yarim tundan oshganda shoshilib xirmonga boribdi. Xirmondagi donning yarmini ukasinikiga qo'shibdi. Qaytib uyiga kelib, shiringina uyquga ketibdi. Ertasiga tong sahardan aka-ukalar yana ishga kirishibdi. “Xo'p mayda, xo'p mayda, somoni senga foyda, bug'doyi menga foyda”, deb qo'shho'kizni haydab qo'shiq aytishibdi. Xirmonni yanchib, yaxshigina don yig'ishibdi, Xudoga shukr qilishibdi. Urf-odatlar bo'yicha xirmon tepasiga kelganlar “Xirmonga baraka!” deb duolar o'qisharkan. Masjid imomiga besh g'alvir, yurtning sartaroshiga uch g'alvir, qulog'iga azon aytgan muazzinga ikki g'alvirdan bug'doy berib, qolganini aka-uka teng ikkiga bo'libdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy savodxonligini oshirishda 3-sinflarda “Mehribon aka-ukalar” hikoyasining tahlilini ko'rib chiqamiz. Bunda o'quvchilarning ayrim so'zlar talaffuzi va imlosi yuzasidan muammolarning kelib chiqishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. “Jannatmonand” so'zining oxiridagi “d” undoshi talaffuzda tushib qoladi, ammo yoziladi. Bu holat nutqimizda ko'p uchraydi. Shunday so'zlar borki, biz ularni talaffuz qilganimizda ba'zi tovushlar tushib qoladi, lekin yozuvda saqlanadi. Masalan, Samarqand, farzand, taxt va h.z. “O'rib” so'zida O' unlisini esa gorizontal holatiga ko'ra til oldi unli qilib talaffuz qilish maqsadga muvofiq.

“Nihoyat”, “dehqon”, “hosil” so'zlarida h tovushi x tarzida talaffuz qilinadi. “Muazzin” so'zida ham “ua” “o” tarzida eshitiladi. Chunki qo'sh unli tovushlari talaffuzda bitta tovush singari aytiladi, lekin yozuvda asli holicha yoziladi. Qo'sh unli ishtirok etgan so'zlar arab tilidan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Mana shunday kichik bo'lib ko'ringan muammolar o'quvchilar nutqining buzilishiga va so'zlarni noto'g'ri tushunilishiga olib kelishi mumkin.

Chiroqning moyi kimniki

Xalifalik davrlarida hazrati Umarning uylariga makkalik bir do'sti mehmon bo'lib keldi. Qorong'u kecha edi. Hazrati Umar uyida davlat ishlari bilan mashg'ul edi. Do'stidan uzr so'rab, biroz kutib turishini aytdi. Davlat ishini bitirganidan keyin yonib turgan chiroqni o'chirdi va boshqa chiroqni yoqdi. Do'sti bundan hayratlanib, sababini so'radi- Hazrati Umar shunday javob berdi:



- O'chirilgan chiroqning moyi xazinanikidir, ya'ni davlatniki. U davlat ishlari ko'rilayotgan paytda yonsa, menga halol bo'ladi. Sen esa mening do'stiman, suhbatimiz ham o'zimizga tegishli bo'ladi. Shu sababli o'z pulimga olingan ikkinchi chiroqni yoqib qo'ydim. Davlatning moyi shaxsiy ehtiyojlarga sarflansa, yorug'lik o'rniga qorong'ilik va uyat bo'ladi.

Ikkinchi hikoyamizni ko'rib chiqamiz: "O'g'ri topildi"

O'g'ri topildi

Imom Abu Hanifaning qo'shnilaridan biri tovusini o'g'irlatdi. Qo'shni imomga murojaat etdi. Imom:

-Buni hech kimga aytmang,- dedi. So'ng u kishi masjidga bordi. Jamoat to'plangach:

-Ey qo'shnisining tovusini o'g'irlagan kishi, tovus patlarini boshingga ilashtirib masjidga kelgani uyalmadingmi?-dedi imom.

Shunda jamoatdan bir odam boshini paypaslaganini ko'rdi. Darhol imom unga:

-Borib, qo'shningning tovusini qaytarib ber,-dedi. Shu tariqa o'g'ri topilib, tovus egasiga qaytarildi.

Bu hikoyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini keng fikrlashga undaydi. Ammo hikoyalarni fonetik, leksik va ma'no jihatdan to'g'ri tahlil qila olishi, mustaqil xulosa chiqarishi nihoyatda muhim. Fonetik jihatdan tahlilni ko'rib chiqamiz, ya'ni o'quvchilar so'zlarni qanday talaffuz qilishi kerak? Talaffuzdagi xatolar, nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. "Chiroqning moyi kimniki" hikoyasida "qorong'u" so'zidagi "u" tovushi "i" tarzida talaffuz etilishi me'yor hisoblanmaydi, "u" deb talaffuz qilish maqsadga muvofiqdir. "O'chirilgan" so'zi ham to'g'ri talaffuz etilishi lozim. "Yorug'lik so'zida ham "u" tovushi qisqa talaffuz qilinadi. "Sarflansa" so'zida r va f tovushlari o'rtasida "i" eshitilsa-da, ammo yozilmaydi.

"O'g'ri topildi" hikoyasida ham talaffuz qilinishi jihatidan bir qancha muammoli so'zlar bor. "Murojaat" so'zida 2 ta "a" tovushi bo'lsa-da, cho'ziq talaffuz qilinmaydi, bu so'z arab tilidan o'zlashgandir. "Jamoat" so'zida esa "oa" tovushlari bir "o" tovushiga monand aytiladi, "darhol" so'zi ham "h" tovushi "x" ga monand aytilsa-da, "h" yoziladi. O'qituvchi hikoya mavzusini o'tishda bir qancha metodlardan foydalanadi. "Chiroqning moyi kimniki" mavzusidagi ibratli hikoya o'quvchilar tomonidan o'qib beriladi. Matn tarkibida qo'llangan ayrim so'zlarning izohi keltiriladi.

Xalifa - davlatning boshlig'i. Oshna - do'st, birodar

O'quvchilar bilan savol-javob o'tkazilib, mavzu mustahkamlanadi. "O'g'ri topildi" hikoyasi bir necha o'quvchi tomonidan ifodali o'qiladi. Ushbu hikoyadagi ayrim so'zlarning izohi keltiriladi. Hikoyadagi buyruq gaplarni aniqlab, ko'chiring. Ular qanday mazmunni ifodalayapti? O'quvchilardan buyruq gap, uning ifodalanishiga oid ma'lumotlar so'raladi. Yodga olingan ma'lumotlar asosida buyruq gaplar ko'chirib yoziladi.

-Buni hech kimga gapirmang.-Borib qo'shningning tovusini qaytarib ber, kabi.



Nasriy matnlarini shu metodlar orqali berib borish ularda yaxshi natijalar kuzatilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi kunda ta'lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish, ta'lim tizimining eng muhim muammolaridan biri. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari orfoepik va orfografik bilimlarni mukammal egallaganliklari holda o'sha bilimlarini o'quvchilarga yetkaza olishi kerak. Bu yo'lda uchraydigan muammolarni hal etish yo'llaridan biri – o'qitish jarayonida o'quvchilar bilan individual ishlash hamda ularning nutqida yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish uchun nasriy asarlarning ma'nosini tushungan holda ko'proq yodlatish muhimdir. Bu esa o'quvchilarni faollashishigagina emas, balki mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashini shakllantirish bilan birga ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo'lishi hamda ijobiy kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent. 2020-yil, 23-sentabr.
2. Ona tili o'qitish metodikasi. K.Qosimova Toshkent-2009
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev Toshkent 2006-2008
6. O'zbek dialektologiyasi. Ashirboyev Samixon. Toshkent-2003
7. Internet ma'lumotlari